



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
__-umumiy o'rta ta'lim maktabi
10-"__" sinf rahbari
_____ning

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli
buyrug'i 7-ilovasi asosida tayyorlangan
20__-20__-o'quv yili uchun

SINF SOATLAR ISH REJASI VA DARS ISHLANMALARI



*Ta'lim-tarbiya –
bu bizning kelajagimiz,
hayot-mamot masalasi.*

SHAVKAT MIRZIYOYEV

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlar, bugungi kun talablariga mos odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishni talab etadi.

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda avvalo o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng olijanob vazifadir. Komil inson, o'qituvchining mashaqqatli mehnati namunasidir. Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng sharaflisi maktab bo'lsa, kasblaming ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.

Zamonaviy sinf rahbarining faoliyati birinchi navbatda o'z sinfidagi o'quvchilar bilan ishlashga qaratilgan. U har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini o'rganish, kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish va rag'batlantirish uchun motivatsiyani shakllantiradi.

Sinf rahbarining asosiy vazifalari

o'quvchilarning maksimal darajada rivojlanishi uchun imkoniyatlarini ochish, har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xosligini saqlab qolish, aqliy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

O'z faoliyatining texnologiyasini puxta egallagan haqiqiy sinf rahbari:

- har bir o'quvchida o'ziga xos, betakror shaxsni ko'ra biladigan dono tarbiyachidir;
- har bir o'quvchini pedagogik tashxis asosida chuqur o'rganadi; u bilan munosabatlarni uyg'unlashtiradi;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan holda bolalar jamoasini shakllantirishga yordam beradi.

Kasbiy mahoratga ega bo'lgan sinf rahbari yosh avlod shaxsini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchi uchun u:

- ustoz va bog'lovchi bo'g'in;
- axloqiy charchoqdan va ma'naviy halokatdan himoyachi;
- birgalikda turli tadbirlar orqali sinfda hamkorlidagi munosabatlarni quruvchi;
- har bir bola rivojlanishi va o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan muayyan sharoitlarni yaratuvchi;
- psixolog bilan birgalikda o'quvchining ijtimoiylashuv jarayonidagi yordamchi;
- kundalik hayot va faoliyatni tashkil qilishda ustoz, maslahatchi va do'st
- hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlarini qabul qilish va tushunishda yordamchi
- rahbarlar, oila va atrofdagi jamiyatning birgalikdagi sa'y- harakatlarini muvofiqlashtiruvchi shaxs
- bolalar va o'smirlar guruhlarida qulay mikroiklim asoschisi



ZAMONAVIY SINIF RAHBARINING KASBIY PORTRETI:

boshlovchi (kapitan)-
rahbar va uning sinfi
o'quvchilari bilan
ishlaydigan pedagoglar
jamoasining rahbari



o'z vazifalarini bajarish
bilan birga
"o'quvchilarga yaqin
bo'lish va ularga barcha
xatti-harakatlari bilan
madaniy xulq-atvor
namunalarini
ko'rsatish" imkoniyatiga
ega bo'lgan shaxs

ijodiy tashabbuskorlik,
fuqarolik, mas'uliyat va
bugungi kunda jamiyat
tomonidan talab qilinadigan
fazilatlarni rivojlantirish
uchun sharoit yaratishga qodir
bo'lgan rahbar-navigatör
(boshlovchi)

vaziyatga, bolaning iltimosiga
va uning mustaqillik
darajasiga qarab, himoyachi,
vasiy, yordamchi, hamrohlik
qiluvchi, uni
qo'llab-quvvatlovchi rollarini
mahoratli bajarishga qodir
bo'lgan rahbar

bolalikning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini
tan olgan va o'sib borayotgan shaxsning
huquq va manfaatlarini hurmat qilgan
holda, uning tarbiyasi va shaxsiy
rivojlanishi vazifalarini ustuvor deb
biladigan kasbiy mahoratga ega rahbar

Sinf rahbarligiga tanlovning asosiy mezonlari

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan
- maktabda asosiy xodim sifatida faoliyat olib borayotgan;
- boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayonida mas'uliyat bilan yondasha oladigan;
- umumta'lim muassasalarida soatbay (shu jumladan o'rindoshlik] asosda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarga sinfga rahbarlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- boshlang'ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang'ich sinfga birlashtirilgan o'qituvchilarga yuklatiladi

Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari:

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo'lish;
- ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga birlashtirilgan sinfdagi o'quvchilarning amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;
- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan "O'quvchi", "Davomat" kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish

Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- har tomonlama yetuk, barkamol - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;
- pedagog jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish
- ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash
- birlashtirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash
- sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi

Faoliyat yo'nalishlari

Vatanparvarlik ruhida arbiyalash

- o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash
- o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish
- sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish
- topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish
- o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, milliy an'analariga hamat ruhida tarbiyalash

Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik

- barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligidagi jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish
- o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash
- o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish
- o'quvchilarning kundalik.com elektron platformasidan foydalanishini nazorat va tahlil qilish, o'quv qurollarining mavjudligi va to'g'ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish
- o'quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ'ibot ishlarini olib borish
- ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish
- darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishvahuquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish:

- o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan
- to'garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi to'garaklarga, klublarga jalb qilish
- qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish
- milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa va qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish
- o'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish
- turli (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar] ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-son
buyrug'iga 7-ilova

“TASDIQLAYMAN”:

Maktab MMIBDO‘: _____

“Sinf soati” mashg'ulotlarining 20__-20__-o'quv yili uchun o'quv-mavzu rejasi
10-SINF

№	O'tiladigan mavzular	Soat	Rejada	Amalda
1.	Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!	1		
2.	Kasb va inson temperamenti	1		
3.	Munosib hayot formulasi.	1		
4.	Ustoz otangdek ulug'. (1 oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1		
5.	Zamonaviy mehnat bozori	1		
6.	Ona tili – qalb ko'zgusi.	1		
7.	Halollik qadriyatlar.	1		
8.	Ijtimoiy intellekt.	1		
9.	Ijobiy fikrlash va o'z kuchiga ishonish.	1		
10.	Bulling, zo'rvonlik va qonun .	1		
11.	Zamonaviy kasblar, kasbiy faoliyat.	1		
12.	Vatan oldidagi burch va mas'uliyat.	1		
13.	Konstitutsiya – huquqlarimiz kafolati	1		
14.	Yaxshi kasbga ega bo'lish (trening mashg'uloti)..	1		
15.	Eng buyuk jasorat – ma'naviy jasoratdir.	1		
16.	Ishga yollash va ekspluatatsiya shakllari Migratsiya.	1		
17.	Tinchlik uchun barcha mas'ul.	1		
18.	Media immunitetni nima?	1		
19.	Diniy ekstremizm va terrorizm.	1		
20.	Biz hayotni tanlaymiz.	1		
21.	Inson hayotida zararli odatlar.	1		
22.	Muammoli vaziyatlar: nima muammo bo'lishi mumkin va bunday vaziyatda nima qilish lozim?	1		
23.	Ayolga ehtirom!.	1		
24.	Gender munosabatlar.	1		
25.	Milliy qadriyatlar va an'analarimiz	1		
26.	Amir Temur hayoti bizga o'rnak (Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan).	1		
27.	Ijobiy fikrlash. Hayotda o'z xohishlarimizni anglash.	1		
28.	Yetakchilik qobiliyatlarim.	1		
29.	Ijobiy fikrlash va o'z kuchiga ishonish.	1		
30.	Xotira abadiy, inson qadri buyukdir	1		
31.	Taym-menedjment nima?	1		
32.	Yoshlarning ota-ona, oila hamda mahalla oldidagi burch hamda majburiyatlari.	1		
33.	Shaxsiy kasbiy reja.	1		
34.	Taqdimot qilish ko'nikmalari.	1		

Sana: “ ” _____ 20 __-yil. Sinf: _____ Sinf rahbari: _____

1-Mavzu: Bir bo‘lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: o‘quvchilarga mustaqillik bayrami va uning mazmun mohiyatiga oid bilimlar berish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: televizor, radiyo, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o‘zini tuta bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi: milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim ephil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

Vatanga bo‘lgan mehru muhabbat har qanday muammoni yechishga, har qanday yovuz kuchni yengishga qodir. Tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqı jo‘sh urmagan odamdan jasorat kutib bo‘lmaydi.

Aziz o‘quvchilar! O‘z aqli zakovatingiz, bilim va tafakkuringiz, kuch-g‘ayratingizga, tog‘dek tayanchingiz Vataningizga suyanib, marrani katta oling. Marrani doimo baland olib yashang, ertangi kun bizniki, sizdek shijoatli yoshlarimizniki!

Shuni unutmangki, kelgusida erishadigan har bir g‘alabangiz-yurtimiz g‘alabasi O‘zbekiston g‘alabasidir!



2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatları, uning qadri, sha‘ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

Dars davomida o‘qituvchi javob bergan o‘quvchilarni fikrlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilmagan holda, to‘qri yo‘naltirib, rag‘batlantirib borishi shart.

Ushbu darslar oddiy ma‘ruzavozlikdan iborat bo‘lmasligi, berilayotgan topshiriqlarni ko‘proq amaliy tomonlariga e‘tibor qaratilishi lozim.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20 __yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

2-mavzu: Kasb va inson temperamenti.

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarga kasb va temperament tuzilmasini aniqlashni o‘quvchilarga o‘rgatish.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

O‘qituvchi:

Temperament tipi - insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig‘indisi (majmuasi).


Xolerik - kuchli, qo‘zg‘alishi ustun bo‘lgan nomutanosib, o‘ta harakatchan tip. **Sangvinik** – asab tizimining kuchli, mutanosib, harakatchan tipi.

Flegmatik – kuchli, mutanosib, harakatsiz tip.

Melanxolik - kuchsiz, nomutanosib va rigid tip.

Xarakter - shaxs xulqining tipik usullar bilan bog‘liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo‘luvchi, mujassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmuasi.

Shaxs – psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. SHaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini ta’riflash imkonini beruvchi asosiy xossalarni ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida ko‘rib chiqamiz.



Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliligi va bu bilan bog‘liq kechinmalar ma’nosida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u holda inson mavjud bo‘la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to‘la. Bu dunyoga jismlil faoliyat o‘z shaklini o‘zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo‘qotgan jismlil harakat bo‘lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

3-Mavzu: Munosib hayot formulasi

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilar munosib hayot formulasi to‘g‘risida ma‘lumot berish, odamlarga yordam berishga undash .

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

Hammaga yashash uchun 24 soat beriladi. Hayot mana shu – bizga berilgan lahzalar sarhisobi. To‘g‘ri, u qisqa. Ammo qadriga yetib, o‘tkinchi hayotning mohiyatini tushunib oqilona yashalsa, bu – bir marta huzurlanib yashash uchun yetarli fursat. Garchi hayot yillar bilan o‘lchansa ham, biz umr deganda baxtli daqiqalar, go‘zal xotiralarni eslaymiz.

Aytishadiku, bir kunlik umrda ham bir asrlik hayot kechirsa bo‘ladi. Buning uchun esa quyidagi qoidalar ham yordam beradi.

24 soatni faqat o‘zingga sarflama. Boshqalar uchun qayg‘urish, boshqalarga dalda bo‘lish va boshqalar bilan fikrlashishni kanda qilmagin. Hayotingda ma‘no yo‘qligini sezgan kuning atrofga boq va odamlarga yordam qo‘lini cho‘z. Bu yaxshiliging yashashing uchun sabab bo‘ladi.

Hayot siz uchun nimani anglatishini aniqla. O‘zingizning hayotdagi so‘nggi yillaringizda tasavvur qiling. Bu – hayot! Va siz o‘sha mahalda o‘tgan umringizni qanday tasavvur qilib, nima deb izohlagan bo‘lar edingiz? Hayot – go‘zallik, muhabbat, jo‘shqinlik, yaratuvchanlik va qiziquvchanlik mujassam bo‘lgan muqaddas ibodatxonadir. Ibadat esa – ezgu amal va ezgu fikrni anglatadi

Kelajakda yashashni bas qil. "Bir kuni", "vaqtim yoki imkonim bo‘lganida" degan rejalar ko‘payib ketsa, bir zumga to‘xtang va o‘zingizdan "nimaga hozir yoki bugun emas?" deb so‘rang. Hayot afsuslar bilan uyg‘onish uchun qisqalik qilishini his eting. Har kuni sizga tirikligingizni eslatadigan biror ish qiling.



III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli buyrug'i 7-ilova asosida tayyorlangan

40 listdan iborat 10-sinf Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16.Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**